G'allachilik klasterlarini shakllantirishning tashkiliy-iqtisodiy jihatlari	986
Ilmuratov Shavkat Maxsumovich	
Innovatsion texnologiyalarda umumishlab chiqarish xarajatlarini strategik boshqaruvin hisobini takomillashtirish masalalari	990
Nasriyeva Zebiniso A'zam kizi, Mavlyanova Dilobar Maxkamovna	
Suv resurslaridan foydalanishda zamonaviy texnologiyalarni joriy qilish-davr talabi	995
Ibroyim Maxkamov	
Tadbirkorlik subyektlari yer-suv resurslaridan foydalanishining hududiy xususiyatlari	999
Xamidjon Muxamadovich Shaxobov	
Korporativ tuzilmalarda global biznes etikasi va yashil biznes drayverlari.....	1003
Egamberdiyev Shuxrat Satimbayevich	
Aholini qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan ta'minlashning ayrim masalalari xususida.....	1007
Ochilova Maftuna Toshpulat qizi	
Tijorat banklari faoliyatining joriy holati tahlili	1012
Ergashev Azizzon Avazxon o'g'li	
Fermer xo'jaliklari samarali faoliyatining asosiy statistik ko'rsatkichlari va ularning tahlili.....	1016
M. Sh. Axmedova	
Tadbirkorlikni davlat tomonidan tartibga solish va qo'llab-quvvatlash shart-sharoitlari.....	1021
S. T. Toshaliyeva, D. A. Eshqulova	
Kichik biznes subyektlarini rivojlantirishda innovatsiyalardan samarali foydalanish mexanizmlari	1029
Rustamov Alisher Raxmataliyevich	
Iqtisodiyotni tartibga solishda moliya siyosatining ahamiyati	1038
Latipova Shaxnoza Maximudovna	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida tijorat banklarning xalqaro valyuta operatsiyalarini takomillashtirish masalalari	1043
Beknazarov Nilufar Tulkinovna	
O'zbekistonda milliy valyuta kursi barqarorligini ta'minlash yo'llari	1046
Nasirkodjaeva Dilafruz Sabitxanovna, Shokirov G'ułomjon Sobirovich	



O'ZBEKISTONDA MILLIY VALYUTA KURSI BARQARORLIGINI TA'MINLASH YO'LLARI



Nasirxodjaeva Dilafruz Sabitxanova
I.f.d., Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
professori



Shokirov G'ulomjon Sobirovich
O'zbekiston Respublikasi
Bank-moliya akademiyasi magistranti

Annotatsiya: Maqolada milliy valyuta kursi barqarorligini ta'minlash jarayonida vujudga keladigan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar va ularni tartibga solish mechanizmlari bilan bog'liq jarayonlar umumlashtirilgan. O'zbekistonda milliy valyuta kursi barqarorligini ta'minlash jarayonida Markaziy bankning o'rni va uni amalga oshirish mechanizmi bilan bog'liq jarayonlar nazariy-uslubiy jihatdan tadqiq etilgan. O'zbekistonda milliy valyuta kursi barqarorligini ta'minlash yo'llariga doir amaliy taklif va tavsiyalar shakllantirilgan.

Kalit so'zlar: valyuta kursi, valyuta konvertatsiyasi, valyuta operatsiyalari, pul-kredit siyosati, moliya bozori, valyuta almashinuv kursi, investitsions loyiha.

Abstract: The article summarizes the processes associated with socio-economic relations and mechanisms for their regulation that arise in the process of ensuring the stability of the national currency exchange rate. In the process of ensuring the stability of the national currency exchange rate in Uzbekistan, the role of the Central Bank and the processes associated with the mechanism for its implementation are theoretically and methodologically studied. Uzbekistan has formulated practical proposals and recommendations on ways to ensure stability of the national currency exchange rate.

Key words: exchange rate, currency conversion, currency operations, monetary and credit policy, financial market, exchange rate, investment project.

Аннотация: В статье обобщены процессы, связанные с социально-экономическими отношениями и механизмами их регулирования, возникающие в процессе обеспечения стабильности курса национальной валюты. В процессе обеспечения стабильности курса национальной валюты в Узбекистане теоретически и методологически исследуются роль Центрального банка и процессы, связанные с механизмом ее реализации. В Узбекистане сформулированы практические предложения и рекомендации по путям обеспечения стабильности курса национальной валюты.

Ключевые слова: валютный курс, конвертация валюты, валютные операции, денежно-кредитная политика, финансовый рынок, валютный курс, инвестиционный проект.



KIRISH

Tovarlar va xizmatlar bilan xalqaro savdoning kengayishi ko'pchilik davlatlar chegaralarini geografik xaritadagi shartli chiziqlarga aylantirib yubordi. Biroq ushbu davlatlarning valyutalari mustaqil bo'lib, ularning iqtisodiyotlarini tarkibiy ajralmas qismi bo'lib hisoblanadi. Valyutalari erkin konvertatsiya qilinadigan iqtisodiy tizimlarda valyuta kurslarining ayrboshlanish darajasi milliy eksport tarmoqlarining muvaffaqiyatini va boshqa mamlakatlardan import qilinadigan tovar hamda xizmatlar baholari darajasining hal qiluvchi omili bo'lib hisoblanadi. Valyuta kurslarining muvozanatsizligi sharoitida banklar va tadbirkorlar ushbu muvozanatsizlik bilan bog'liq xavf-xatarlarni boshqarishda katta qiyinchiliklarni o'z boshidan kechiradi. Valyuta savdosi bilan bog'liq bazis operatsiyalarni quyida ko'rib chiqish va ularni to'g'ri tushunish uchun ba'zi bir tushunchalarni o'rganib olishimiz lozim.

Valyuta sifatida banklarning xorijda xorijiy valyutada joylashtirilgan aktivlari hamda xorijda to'lovi amalga oshiriladigan xorijiy valyutadagi cheklar va veksellar tushuniladi. Bunda gap faqat naqdsiz pullar haqida boradi. Valyutaning qiymati tovarlar bilan savdodagi singari talab va taklifga bog'liq bo'lgan bahoda ifodalanadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida sub'ektlar o'tasida tashkil topadigan, talab va taklif qonuni ta'sirida o'zgarib turadigan bozor munosabatalari ta'sirida valyuta kursi ham doimiy ravishda o'zgarib turadi. Valyuta kursining o'zgarib turishi ob'ektiv va sub'ektiv omillarga bog'liq bo'ladi. Obyektiv omillar mamlakatning iqtisodiy holatidan kelib chiqadi. Chunki mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish ishlab chiqilgan iqtisodiy siyosat maqsadidan kelib chiqadi. Shuning uchun ham ma'lum davrdagi iqtisodiy holatda tashkil topgan valyuta kursi shu davrning ijtimoiy-iqtisodiy holatini ifoda etadi. Valyuta kursiga ta'sir etuvchi omillardan biri valyuta yo'lakchasini belgilash hisoblanadi. Valyuta yo'lakchasini belgilash bozor iqtisodiyotida valyuta kursi o'zgarishining ma'lum bir doirada bo'lishining davlat tomonidan tartibga solinishini nazarda tutadi. Natijada valyuta kursining muqobil darajasini belgilash orqali valyuta muomalasining samarali bo'lishini ta'minlash mumkin. Valyuta kursining qay darajada saqlanishini davlatning iqtisodiy siyosatidan kelib chiqqan holda Markaziy bank belgilab beradi. Valyuta kursiga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy omillardan yana biri unga bo'lgan talab va taklifdir.

Markaziy bankning qayta moliyalashtirish stavkasini keskin oshirish muayyan o'rta davrga mo'ljallangan taktik tadbir bo'lib, bunda asosiy e'tibor valyutaning erkin konvertatsiyasi sharoitida tijorat banklarining likvidligini ta'minlash va yuzaga kelishi mumkin bo'lgan inflaytssion bosimni yumshatishga qaratiladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 2-sentabrdagi "Valyuta siyosatini liberalallashtirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5177-sonli Farmoni asosida yo'lga qo'yilgan erkin konvertatsiya bu borada yuzaga kelishi mumkin bo'lgan inflaytssion xavfning oldini olish uchun xizmat qiladi. Bu kabi tadbirlarning amalga oshirilishi, o'z navbatida, qisqa davrda ekspansion va restriksion pul-kredit siyosatini amalga oshirishning sabab-oqibatlarini aniqlash va birlamchi ta'sir etishning samarali mexanizmini ishlab chiqish^[1] vazifalari mazkur tadqiqot ishining dolzarbligini belgilab beradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Milliy valyuta kursi barqarorligini ta'minlash yo'llari va uni tizimli tartibda tashkil etish mexanizmi xorij iqtisodchi olimlaridan L.S.Padalkina, V.V.Klochkov tadqiqotlari doirasida atroficha tadqiq etilgan bo'lib, tadqiqot jarayonida valyutaga bo'lgan talab va taklifning o'zgarib borishi har bir mamlakatning makroiqtisodiy rivojlanish darajasiga ta'sir ko'rsatishi qayd etiladi^[2]. I.T.Balabanov tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda valyuta bozorining mohiyati, turlari, uni tashkil etish va valyuta nazoratini amalga oshirishda davlatning roli bilan bog'liq jarayonlar o'rganilingan^[3]. M.Gilbert valyuta operatsiyalarini deport, foiz arbitraji, fyuchers va opsiyon savdosi, chet el valyutasida qimmatli qog'ozlar muomalasi kabi qator mexanizmlarini o'rgangan^[4]. A.V.Xolopov o'z tadqiqotlari orqali valyuta operatsiyalarini amalga oshirishda kredit va debet kartochkalaridan foydalanish mexanizmining o'rni, valyuta birjasi faoliyatini tashkil etish tizimi, valyuta dileri va brokerining faoliyat jarayonini o'rganishga harakat qilgan^[5].

Mamlakatimiz iqtisodchi olimlaridan Sh.Z.Abdullaeva tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda valyuta kursi xalqaro savdoni rivojlantirishga ta'sir ko'rsatishi bilan ichki iqtisodiyotga ham o'z ta'sirini ko'rsatishini e'tirof etgan holda, valyuva kursining holati mamlakat iqtisodiyotining sohalarini o'zaro bog'liqligini aks ettiradi degan xulosaga keladi^[6]. T.I.Bobakulov, J.Ya.Isakov, U.A.Abdullayev, I.M.Alimardonov, N.K.Abrayevlarning tadqiqot jarayonlarida markaziy bankning valyuta operatsiyalari va ularni tashkil qilish asoslari, valyuta operatsiyalarining turlari va amalga oshirish mexanizmi bilan bog'liq munosabatlар o'rganilingan^[7]. O.U.Mamadiyorov, B.O.Tursunovlar tijorat banklari valyuta operatsiyalarini milliy valyuta kursi barqarorligini ta'minlashdagi o'rnini tadqiq etadilar^[8]. T.Q.Boltayev valyuta kursi, uning o'rnatilishi va nazariy asoslari shuningdek O'zbekistondagi valyuta munosabatlari o'ziga xos xususiyatlarini tadqiq etadi^[9]. M.S.Akilov milliy valyuta barqarorligini ta'minlashda Markaziy bankning pulkredit siyosati o'rni, respublikada milliy valyutani mustahkamlashda so'mning xarid quvvatini oshirish, barqarorligini ta'minlash muammolarini o'rganishga harakat qiladi^[10]. S.V.Po'latova, S.R.



Allayarov O'zbekistondagi valyuta siyosatidagi o'zgarishlar, shuningdek, valyuta kursi siyosatining zamonaviy moliya-valyuta tizimidagi ko'rsatkichlarini iqtisodiy o'sishga ta'sirini o'rgangan bo'lib, ushu tadqiqotlarda milliy valyuta kursi barqarorligini ta'minlash yo'llari va mexanizmlari tadqiq etilmagan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI


Tadqiqot ishida mantiqiy abstraksiya, induksiya va deduksiya, tizimli tahlil kabi tadqiqot usullaridan keng qamrovli tartibda foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki qisqa davr oralig'idagi taktik tadbirlarda restriksion pul-kredit siyosatini amalga oshirishni ustuvor vazifa deb hisoblaydi. Restriksion siyosat ishlab chiqaruvchilarning foya normasini qisqartirgani holda umumiy yaratuvchanlik, ya'ni iqtisodiy o'sishga salbiy ta'sir etayotgan bo'lсада, о'з navbatida, muhim indikator hisoblangan inflyatsiyani jilovlash imkonini bermoqda.

Bugungi kunda O'zbekistonda yuqori iqtisodiy o'sishni ta'minlashdan ko'ra inflyatsiyani jilovlash nisbatan ustuvor ahamiyat kasb etadi. Moliya bozorini rag'batlantirishda pul-kredit siyosatining inflyatsiyaga ta'sir ko'rsa-tuvchi unsurlar to'plami mavjud bo'lganidek, monetar siyosat dastaklarining transmission mexanizmi kanallari ham mavjud.

Markaziy bank ekspansion va restriksion siyosatni amalga oshurish zaruriyatidan kelib chiqib, pul-kredit siyosati dastaklari orqali "Qimmat pullar" va "Arzon pullar" siyosatini olib boradi. Markaziy bank "Qimmat pullar" siyosatini muomaladagi pul massasini o'zgartirmagan holda, foiz stavkasini tebrantirish orqali amalga oshirishni ko'zlaydi.



1-rasm: O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankning ekspansion va restriksion pul-kredit siyosatini qisqa davr oralig'ida amalga oshirish mexanizmi^[12]

Kreditlar bo'yicha foiz stavkasining o'sishi hamda muomaladagi pul massasining muayyan muddat davomida o'zgarmay turishi natijasida pulga bo'lgan talabning oshishi yuzaga keladi. Bu esa, Markaziy bankka ushu davrdagi pulga bo'lgan talabning qimmat pullar orqali qondirish imkonini beradi. Natijada, Markaziy bank muomaladagi pul massasini o'zgartirmagan holda inflyatsiyani jilovlashga erishadi.

Markaziy bank tomonidan "Qimmat pullar" siyosatining amalga oshirilishi ishlab chiqarish sur'atlarining pasayishiga hamda hukumatning yirik investitsiya loyihibalarining bajarilishini sekinlashuviga ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli, Markaziy bank pul-kredit siyosatining mazkur usulidan faqat milliy valyuta kursining qisqa muddatdagi keskin tebranishini tartibga solish maqsadida foydalanadi.



O‘z navbatida, kreditlar bo‘yicha foiz stavkasining oshirilishi quyidagi holatlarga sabab bo‘ladi:


Birinchidan, tijorat banklari kreditlari hisobidan moliyalashtiriladigan loyihamonlarning soni va kreditlar hajmi qisqaradi. Foiz stavkasining oshirilishi natijasida loyihamonlarning rentabelligi pasayib, mamlakatdagi xo‘jalik yurituvchi subyektlarning investit-siyaviy faolligi susayadi;

Ikkinchidan, xo‘jalik yurituvchi subyektlarning yangi va mavjud ishlab chiqarish quvvatlarini modernizatsiya qilish bo‘yicha loyiha xarajatlari keskin ortadi;

Uchinchidan, faoliyati loyiha va kredit mablag‘lari hisobidan moliya-lashtiriladigan, ishlab chiqarishi eksportga yo‘naltirilgan korxona va tashkilotlar eksport salohiyatining keskin pasayishi natijasida, xorijiy valyuta tushumi qisqaradi;

To‘rtinchidan, iqtisodiyot tarmoqlarini modernizatsiyalash va diversi-fikatsiyalashga qaratilgan loyihalarni imtiyozli kreditlash tadbirlarini qayta ko‘rib chiqish zaururati yuzaga keladi;

Beshinchidan, tijorat banklariga kredit portfeli tarkibidagi uzoq muddatli investitsiyaviy moliyalashtirish ulushiga qarab tabaqlashtirilgan stavkalar bo‘yicha foyda solig‘ini to‘lash yuzasidan berilgan imtiyozlar qayta ko‘rib chiqiladi.



2-rasm: Markaziy bankning “Qimmat pullar” siyosati¹

Mazkur holatlardan kelib chiqib aytish mumkinki, “Qimmat pullar” siyosatidan faqatgina iqtisodiyoti qizib ketish xavfi mavjud bo‘lgan kam sonli mamlakatlar Markaziy banklari tez-tez foydalanim turishadi. Shu kabi mamlakatlar sirasiga Xitoyni kiritish mumkin.

Markaziy bankning “Arzon pullar” siyosati past foiz stavkasini o‘zgartirmagan holda pullar taklifini rag‘batlantirish orqali pulga bo‘lgan talabni qondirishni nazarda tutadi. Sanoati rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotida monetizatsiya koefitsienti nisbatan past bo‘lganligi sababli, pulga bo‘lgan talabning yuqori darajasi saqlanib qoladi.

“Arzon pullar” siyosatini amalga oshirilishi natijasida iqtisodiyot arzon pullar bilan to‘yinadi. Bu o‘z navbatida, bir tomonidan ishlab chiqarish sur’atlarini oshirsa, boshqa tomonidan inflyatsiyaning jadallahuviga sabab bo‘lishi mumkin.

¹ Duskobilov U.Sh. O‘zbekiston Respublikasi markaziy bankining “samarali pullar” siyosati va uni makroiqtisodiy ko’rsatkichlarga ta’sirining konseptual jihatlari. Iqtisodiyot va ta’lim / 2016 №6, 21-bet



“Arzon pullar” siyosatini amalga oshirish jarayonidagi yana bir nozik jihat mamlakatdagi narxlar darajasining o’sib ketishi hisoblanadi. Bu kabi sharoitda Markaziy bankning monetar siyosat dastaklaridan samarali foydalanishi talab etiladi. Bunda, pullar taklifi va pulga bo’lgan talab o’tasidagi muvofiqlikni ta’minalash dolzarb. Bugungi kunda O’zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan “Qimmat pullar” va “Arzon pullar” siyosati amaliyoti keng qo’llaniladi. Bu ikki siyosatning uyushgan shakli “Samarali pullar” siyosatini vujudga kelishiga ta’sir ko’rsatadi.

Markaziy bank tomonidan arzon pullar taklifining rag’batlantirilishi quyidagilarga erishish imkonini beradi:

Birinchidan, mamlakatdagi ishlab chiqarish subyektlari to’liq quvvat bilan faoliyat yuritadi. Mamlakatdagi ishlab chiqarish hajmining barqaror o’sishi YALMning yillik o’sish sur’atini 5-15 foiz bo’lishini ta’minalaydi. Nati-jada, tovarlar yaratuvchanligi ortib, aholining mahalliy bozorlardagi ehtiyoji qondiriladi.

Ikkinchidan, foiz stavkasining past darajada saqlanishi natijasida tijorat banklari kreditlari hisobidan moliyalashtiriladigan loyihamon soni va rentabelligi ortadi. Shuningdek, mamlakatdagi xo’jalik yurituvchi subyekt-larning investitsions faoliyoti oshadi.

Uchinchidan, xo’jalik yurituvchi subyektlarning yangi va mavjud ishlab chiqarish quvvatlarini modernizat-siya qilish bo'yicha loyiha xarajatlari qisqaradi.

To’rtinchidan, faoliyati loyiha va kredit mablag’lari hisobidan moliya-lashtiriladigan, ishlab chiqarishi eksportga yo’naltirilgan korxona va tashkilotlarning to’liq quvvat bilan ishlashi natijasida, ularning eksport salohiyati keskin oshadi. Bu xorijiy valyuta tushumining oshishiga olib keladi.

Beshinchidan, hukumatning yirik investitsion loyihalarni amalga oshirish imkoniyati kengayib, samaradorligi ortadi. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, “Arzon pullar” siyosatini amalga oshirilishi Markaziy bankdan juda ehtiyojkorona yondashuvni talab etadi. Mazkur miqdoriyum shatish Markaziy bank tomonidan oqilonan monetar tadbirlarning amalga oshirilishi nafaqat moliya sektori balki, iqtisodiyot uchun taraqqiyot yo’lini belgilashi, yoki aksincha moliyaviy inqiroz bosqichini boshlab berishi mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Respublikada milliy valyutani mustahkamlashda so’mning xarid quvvatini oshirib borish va uning barqarorligini ta’minalash asosiy vazifa hisoblanadi. Bunda bozorni raqobatdosh mahsulotlar bilan to’ldirish va zarur ehtiyojlar hosil qilish orqali erishiladi. Bozorni iste’mol tovarlari bilan to’ldirishda milliy ishlab chiqarishni imkoniboricha kengaytirib borish, hal qiluvchi ahamiyatga ega. Chunki shu orqali iste’mol tovarlari sotishning umumiy hajmida milliy mahsulotlar hissasi oshirib boriladi. Shuni ta’kidlash joizki, milliy ishlab chiqarishni kengaytirish orqali so’mning barqarorligini ta’minalash chetdan mahsulot keltirishni inkor qilmaydi. Aholini sifatli chet el tovarlari bilan ta’minalash maqsadida import ham rag’batlantirib boriladi. so’mning barqaror amal qilishi, uning har qanday valyutaga erkin almashilishi yetarli valyuta zaxirasi bo’lishiga bog’liq. Unga erishishda korxonalar va barcha xo’jalik yurituvchi sub’ektlarning, jahon bozoriga raqobatga bardosh beradigan mahsulot ishlab chiqarishi uchun zarur bo’lgan rag’batlantiruvchi omillarni vujudga keltirish muhim ahamiyat kasb etadi. So’mning barqarorligini ta’minalashda undan ehtiyojkorona va tejab-tergab foydalanish, ishlab chiqarishga sarflangan mablag’larning eng ko’p samara berishiga, olingan kreditlarning o’z vaqtida qaytarilishiga erishish muhim o’rin tutadi. Makroiqtisodiy va moliyaviy barqarorlikni hamda iqtisodiy o’sishni ta’minalashda pul-kredit tizimi asosiy o’rinni egallaydi. Shuning uchun ham jahon mamlakatlari oldida iqtisodiy taraqqiyotning zamonaviy bosqichida pul muomalasini tartibga solish va uni barqarorlashtirish asosida milliy valyutaning xarid quvvatini mustahkamlash, inflyatsiya darajasi oshib ketishiga yo’l qo’ymaslik kabi vazifalar dolzarb muammolardan biri bo’lib turibdi.

Chunki xarid qilish uchun tovarlar yetarli bo’lmagan holda aholi qo’lida pulning ortiqcha ko’payib ketishi inflyatsiyaning yanada avj olib ketishiga sabab bo’ladi. O’zbekistonda amalga oshirilgan pul-kredit siyosati ham pul massasining keskin o’sib ketishini oldini olish orqali milliy valyuta barqarorligini ta’minalash maqsadlariga qaratildi. Bunda rezerv pullar va pul massasining o’zgarishi operatsion hamda oraliq mo’ljallar sifatida qo’llanildi. Mazkur rejim rasman monetar targetlash deb tasniiflansa-da, amaliyotda milliy valyutaning almashuv kursini AQSh dollariga bog’lash orqali bosqichmabosqich devalvatsiya qilib borilganligi tufayli ba’zi xalqaro institutlar va mutaxassislar tomonidan ushbu rejim aralash turga kiritilgan. Bir vaqtning o’zida ikki maqsadga yo’naltirilgan almashuv kursi siyosati tashqi shoklar vujudga kelgan sharoitlarda samarasiz ekanligini ko’rsatdi.

Bugungi kunda inflyatsiyani jilovlashga qaratilgan aniq o’ylangan siyosatning amalga oshirilishi milliy valyutani mustahkamlanishining muhim shartlaridan biri sifatida qaralmoqda. Bunda, milliy valyutaning devalvatsiya darajasi ustidan kat’iy nazoratning o’rnatalishi hamda unga qarshi samarali tadbirlarni qo’llash hal qiluvchi ahamiyatga ega bo’lib, shu orqali pulning qadrsizlanishida maqbul sur’atni tanlashga erishiladi. Jumladan, inflyatsiyani jilovlashga qaratilgan siyosatni muomaladagi pul hajmi o’sish sur’atlarining tovar va xizmatlar hajmining muayyan o’sish tendensiyalari bilan uyg’unlikda amalga oshirilishi bilan mos ravishda olib borish zarur bo’ladi.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 2-sentabrdagi "Valyuta siyosatini liberallashtirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5177-sonli Farmoni. lex.uz>docs/-3326421
2. Падалкина Л.С., Клочков В.В. Мировая экономика: учебник. –М.: Проспект, 2012. –240 с.
3. Балабанов, И.Т. Валютные операции / И.Т. Балабанов. –М.: Финансы и статистика, 2022. –144 с.
4. Гилберт, М. В поисках единой валютной системы / М. Гилберт. –М.: Прогресс, 2021. – 349 с.
5. Холопов А.В. Валютный курс как инструмент макроэкономического регулирования // Мировая экономика и международные отношения. –2014. – № 12. С. 21–26.
6. Абдуллаева Ш.З. Халқаро валюта кредит муносабатлари. Дарслик. Тошкент "IQTISOD-MOLIYA", 2005 йил, 588 бет.
7. Бобакулов Т.И., Исаков Ж.Я., Абдуллаев У.А., Алимардонов И.М., Абраев Н.К. Тошкент "IQTISOD-MOLIYA", 2018 йил, 358 бет.
8. Мамадиёров О. У., Турсунов Б. О. Ўзбекистонда банк тизимини ривожлантириш истиқболлари. Илмий рисола //Т.: "Fan va texnologiyalar. – 2016. – Т. 52.
9. Болтаев Т.Қ. Валюта курси ва ўрнатилишининг назарий асослари// Scientific progress. 2021. №2. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/valyuta-kursi-va-rnatilishining-nazariy-asoslari (дата обращения: 03.06.2024).
10. Акилов М.С. Ўзбекистонда миллый валюта барқарорлигини таъминлаш// "Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар" илмий электрон журнали. № 1, январь-февраль, 2019 йил.
11. Пўлатова С.В, Алляяров С.Р. Валюта курси сиёсатининг замонавий молия-валюта тизими ва иқтисодий ўсишга таъсири // Science and Education. 2023. №1. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/valyuta-kursi-siyosating-zamonaviy-moliya-valyuta-tizimi-va-i-tisodiy-sishga-tasiri (дата обращения: 03.06.2024).
12. Duskobilov.U.Sh. Iqtisodiyotni monetar siyosat orqali tartibga solish mexanizmini takomillashtirish. iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (phd) dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent shahri. 2017-yil, 12-21-bet.

Yashil

IQTISODIYOT
va
TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2024. № 2

© Materiallar ko'chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

E-mail: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №5666955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnalning ilmiyligi:

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oly ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oly attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.